



ODAM O'G'IRLASH BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING TEZKOR- QIDIRUV TAVSIFI TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

N.I.Raximov

Toshkent viloyati IIBB Kiberxavfsizlik boshqarmasi boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20432572>

Annotatsiya. Maqolada jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi tushunchasi va uning mazmuni odam o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlarga nisbatan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi, odam o'g'irlash, izlov belgilari.

Аннотация. В статье рассматриваются понятие оперативно-розыскной характеристики преступлений и ее содержание применительно к преступлениям, связанным с похищением человека.

Ключевые слова: оперативно-розыскная характеристика преступлений, похищение человека, поисковые признаки.

Annotation. The article deals with the concept and structure of the operational-search characteristics of crimes in relation to kidnapping.

Key words: operational-search characteristic of crimes, kidnapping, search signs.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir olib borilayotgan islohotlar, ushbu sohani institutsional va huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bo'lib, mamlakatimizda inson manfaatlari, huquq va erkinliklari asosiy qadriyatga aylangan. Ushbu qadriyatlar esa insonning shaxsiy xavfsizligi va daxlsizligi ta'minlanganligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan mamlakatimizda insonning shaxsiy xavfsizligi va daxlsizligini buzishga qaratilgan har qanday jinoiy harakatlar qonun bilan jazolanishi lozim.

Contact: 99 826 99 56



Insonning shaxsiy xavfsizligi, erkinligi va daxlsizligiga qarshi tahdidlar nafaqat O‘zbekistonda balki, butun dunyoda shaxs huquqlari va erkinliklarini poymol qilinishi kabi salbiy illat sifatida ko‘rilmoqda. Odamlarning o‘zlari istagan yerda bo‘lish erkinligiga qarshi jinoyatlardan biri – bu odam o‘g‘irlash jinoyati bo‘lib, mazkur qilmish Jinoyat kodeksining “Shaxsning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar” belgilangan VI bobi 137-moddasida nazarda tutilgan (1).

M.X.Rustambayevning fikricha, odam o‘g‘irlash deganda, odamni egallab olish va keyinchalik uni doimiy yoki vaqtinchalik turar joyidan boshqa o‘g‘irlangan odam zo‘rlik ishlatib muayyan maqsadda ushlab turiladigan aybdor istagan joyga ko‘chirish yo‘li bilan odamni yashirinch, oshkora, aldash yoki ishonchini suiiste’mol qilish yo‘li bilan yoxud boshqa usulda shaxsiy erkinligidan mahrum etish tushuniladi (2).

Odam o‘g‘irlash jinoyati nima uchun sodir etiladi? Bu jinoyatning sodir etilish sababi har-xil bo‘lishi mumkin: pul talab qilish, jabrlanuvchini qandaydir ishni qilishga majburlash, biron bir mulkka bo‘lgan egalik huquqini olish, giyohvandlik yoki pornografik mahsulotlar bilan bog‘lik sohalarda foydalanish uchun odam o‘g‘irlanib, uni erkinligi cheklanishi mumkin.

Odam o‘g‘irlash jinoyatini sodir etgan shaxs ko‘pchilik holatlarda jabrlanuvchi bilan tanish bo‘ladi. Lekin jabrlanuvchiga umuman notanish shaxs tomonidan ham odam o‘g‘irlash jinoyati sodir etilishi mumkin. Bunda jinoyat asosan jabrlanuvchini majburan biron noqonuniy ishni bajarishga majburlash yoki unga nisbatan jinsiy turdagi jinoyatni (nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish, fohishalik qilishga majburlash) sodir etish maqsadida amalga oshiriladi. Odam o‘g‘irlangan vaqtda jabrlanuvchi o‘zining doimiy turar joyini o‘z xohishi bilan tanlash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Odam o‘g‘irlash jinoiy harakat bo‘lib, ikkita elementdan iborat bo‘ladi:





odamni o'g'irlash va uni erkinligidan mahrum etish. Bu ikkita element bir-birini to'ldiradi, ya'ni odam o'g'irlashda bir vaqtning o'zida u erkinligidan ham mahrum bo'ladi. Jinoyat, odatda, yashirin, oshkora, aldov yo'li bilan yoki qo'lga olish (ushlash) yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu jinoyatni sodir etish usuli har-xil ifodalanishi mumkin, lekin asosiy masala odam o'g'irlanganligi holatini aniqlash hisoblanadi.

Odam o'g'irlash jinoyatining jabrlanuvchisi yoshidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, fuqaroligi va boshqa omillardan qat'iy nazar har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Bu jinoyatga qarshi kurashish huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bu turdagi jinoyatlarni sodir etilishi fuqarolarni davlat tizimiga bo'lgan ishonchini susayishiga olib keladi. Jinoyatga qarshi kurashish faoliyati nafaqat jinoyatchilarni aniqlab, ularga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlashni, balki umumijtimoiy va maxsus-kriminologik profilaktika, shuningdek ushbu jinoyatlarni oldini olish va ularga chek qo'yish bo'yicha jinoiy-huquqiy choralarni qo'llashni talab etadi.

Odam o'g'irlash jinoyatlariga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlardan biri – bu ularni oldini olishga qaratilgan choralar bo'lib, ular jinoyatni sodir etilishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Mazkur jinoyatlarga qarshi kurashish va ularni fosh etish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlarda fuqarolarning, birinchi navbatda, jabrlanuvchilar, guvohlar, jinoyatga daxldor shaxslarni odam o'g'irlashga qarshi kurashishdagi huquqiy faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim hollarda bu jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining arizachilar va guvohlar bilan yuzaki ishlashi oqibatida odam o'g'irlanishidan oldingi holatlar, ya'ni bu jinoyatni sodir etilishiga sabab bo'lgan holatlarni aniqlanmasligi, bu jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish ishlarini kechiktirilishiga olib keladi.





Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish ishlari samaradorligini yanada oshirish uchun tezkor-qidiruv faoliyatining maxsus nooshkora usullaridan keng foydalanish zarur bo'ladi. Odam o'g'irlash jinoyati jabrlanuvchilariga nisbatan sodir etiladigan turli jirkanch harakatlar ayniqsa jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilganda jinoyatchilar tomonidan jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshidan moddiy boylik undirish yoki biron bir mulkni egallashni maqsad qilib, jabrlanuvchini qiynoqqa solish holatlari sodir etilishi kuzatiladi. Shu sababli, bu jinoyatlarga qarshi kurashish masalalariga ilmiy yondoshish talab etiladi.

Odam o'g'irlash jinoyatiga qarshi kurashish tizimiga ilmiy yondoshilmasdan, bu turdagi jinoyatlarni sodir etayotgan shaxslarga nisbatan jazo tizimi mukammallashtirilmas ekan, bu holatlar jamiyatda fuqarolar orasida davlat tizimlariga, hususan huquqni muxofaza qiluvchi idoralarga nisbatan ishonchsizlikni ortib borishiga va davlatda uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatlari rivojlanib ketishiga olib keladi. Chunki, odam o'g'irlash jinoyatida insonning eng asosiy qadriyatlaridan biri hisoblangan uning shaxsiy erkinligi poymol bo'lib, jinoyatchilar tomonidan uni hayoti va sog'iligiga tahdidlar bo'ladi.

Insonning shaxsiy daxlsizligi, uning jinsi, millati, salohiyati va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, har bir shaxsning asosiy huquqlaridan biri hisoblanib, mazkur huquq xalqaro va milliy qonunchiligimizda belgilab berilgan. Jumladan, 1966 yil 16 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasida qabul qilingan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt"ning 9-moddasida "Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonunda belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan (3). O'zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-1-sonli "1966-yil 16-dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar





to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan.

Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da ham inson erkinligi, uning daxlsizligi va huquqlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, deklaratsiyaning 3-moddasida "Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir" (4) deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida ushbu deklaratsiya 1991-yil 30-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VII-sessiyasida ratifikatsiya qilingan.

Mazkur sohadagi milliy qonunchilik ham yuqoridagi xalqaro normalarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bo'lib, inson sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz hisoblanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi (5) belgilab berilgan.

Mamlakatimizda odam o'g'irlash jinoyatiga qarshi kurashish, ushbu jinoyatni fosh etish ishlari asosan Ichki ishlar vazirligining Tezkor-qidiruv departamenti va uning quyi tizimlari hamda Davlat xavfsizlik xizmati tezkor bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi jinoyatlarni tergov qilish esa asosan prokuratura tergovchilari tomonidan amalga oshirilib kelinadi (6).

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida odam o'g'irlash jinoyati uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan bo'lib, Jinoyat kodeksining 137-moddasi uchta qismdan iborat: birinchi qismida odam o'g'irlash jinoyati uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yohud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari malakalangan tarkib bo'lib, bunda og'irlashtirilgan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Moddaning ikkinchi





qismida voyaga etmagan shaxsga nisbatan; g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda; bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; takroran yoki xavfli residivist tomonidan sodir etilgan holatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, mazkur qism uchun besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Uchinchi qismida esa o'sha harakat o'ta xavfli residivist tomonidan sodir etilgan, og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan, inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish maqsadida sodir etilgan holatlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, mazkur qism uchun o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Odam o'g'irlash jinoyatini sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan holatda, jinoyat, jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan hisoblanib, mazkur moddaning ikkinchi qismi "v" bandi bilan malakalanadi (7).

Shu o'rinda odam o'g'irlash jinoyatining respublikamizda sodir etilishi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar tahliliga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. So'nggi yillarda bu jinoyatning kamayish tendensiyasi kuzatilayotganiga qaramasdan, ushbu xavfli qilmishning ko'lami keskin qisqarmayotganligi bilan bir qatorda, uni sodir etilish usullari va jinoyatchilar tomonidan o'g'irlangan shaxs, ya'ni jabrlanuvchiga nisbatan g'ayrioddiy munosabatda bo'lish, uni kamsitish, qiynash va tan jarohatlari etkazish kabi holatlar sodir etilmoqda. Respublikamizda 2021-2023 yillar mobaynida jami bo'lib 159 ta odam o'g'irlash jinoyati sodir etilgan (2021 yilda – 64 ta, 2022 yilda – 52 ta, 2023 yilda – 43 ta) bo'lib, shulardan 111 tasi, ya'ni 70 foizi 137-moddaning ikkinchi qismi "v" bandi bilan, ya'ni bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan. Shu bois, mazkur jinoyatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, uni fosh etish samaradorligini yanada oshirish uchun ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalarini tegishli uslubiy tavsiyanomalar bilan ta'minlash zarurati mavjudligini ta'kidlash lozim.

Tezkor-qidiruv amaliyotida uslubiy tavsiyanomalarning zaruriyati shundaki,





ular jinoyatlarni fosh etishda tezkor-qidiruv faoliyati kuchlari va vositalarining tejalishiga, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning qulay taktik usullarini belgilashga, jinoyatlarni fosh etish bo'yicha faoliyatni baholashga oid yagona yondashuvlarni ishlab chiqishga, jinoyatlarni fosh etishda ishtirok etayotgan turli tezkor bo'linmalarining samarali hamkorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Alohida turdagi jinoyatlarni fosh etishga oid uslubiy tavsiyanomalarni shakllantirish va ishlab chiqish – jinoyat turlarining tezkor-qidiruv tavsifi bilan o'zaro chambarchas bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Rossiyalik olim B.V.Borin, jinoyatning tezkor-qidiruv tavsifiga “jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi deganda, jinoyatlarning o'z vaqtida aniqlash, oldini olish, bartaraf etish va fosh etish uchun zarur bo'lgan doimiy va takroriy izlov belgilari majmui sifatida tushunilishi lozim” (8) deb ta'rif beradi.

V.D.Larichev esa “muayyan turdagi jinoyatning tezkor-qidiruv tavsifi – bu maqsadga erishish uchun qanday tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish lozim va ularni qanday samarador usullarda o'tkazish orqali jinoyatni fosh etish masalasini hal etish mumkin degan savolga javob beradi” (9) deb ta'kidlaydi.

V.Karimovning fikriga ko'ra, jinoyatning tezkor-qidiruv tavsifi deganda – jinoyatning muayyan turdagi jinoyatlarga xos bo'lgan xususiyatlarini bilish, ularning oldini olish va fosh etishga oid tashkiliy-taktik vazifalarni samarali hal etish imkonini beruvchi xususiyatlari va izlov belgilari tizimi tushuniladi (10).

Tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi va amaliyoti guvohlik berishicha, jinoyatlarning tezkor-qidiruv tavsifi tarkibiga kiruvchi izlov belgilarini bilish, tezkor xodimlarga tezkor-tergov taxminlarini ilgari surish va asoslashga, noqonuniy harakatlarni hujjatlashtirish bo'yicha aniq tezkor-qidiruv tadbirlarini belgilashga, istiqbollarni aniqlab olishga, mavjud tezkor vaziyatdan kelib chiqqan holda jinoyatlarni fosh etishning tashkiliy-taktik va texnik usullaridan foydalanish, shuningdek jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, ularga chek qo'yish va fosh etishga





oid masalalarni yanada samarali va o'z vaqtida hal qilish imkonini beradi.

Odam o'g'irlash jinoyati *izlov belgilarining birinchi guruhi* – jinoyatning umumiy belgilarini, ya'ni: maqsadlari, motivlari, tayyorlanish va sodir etish joyi, vaqti va usullari, uning asosiy bosqichlarini ochib beradi.

Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, odam o'g'irlashning asosiy maqsadlari: tovlamachilik (to'lov olish, ko'chmas mulkni, moddiy boyliklarni yoki qimmatbaho buyumlarni egallab olish) - 78,3 foiz, zo'rlash, shahvoniy tavsifdagi zo'ravonlik harakatlarini sodir etish - 11,7 foiz, qasd olish- 6,1 foiz, va boshqalar (o'g'irlangan shaxsni qul sifatida ishlatish, fohishalikka majburlash, mansabdor shaxslarga bosim o'tkazish, yolg'on ko'rsatma berishga majburlash va ko'rsatuv berishdan bosh tortishga ko'ndirish kabilar) – 18,4 foiz.

Odam o'g'irlash jinoyatining hududlar kesimida tarqalishi, ularning maqsadlariga bog'liq bo'lib, bir mintaqa doirasida sodir etilishi mumkin (qoida tariqasida, zo'ravonlik tavsifidagi jinsiy harakatlarni sodir etish, qul mehnatidan foydalanish, erkinligini cheklash, qasd olish, mansabdor shaxslarga va jinoyat protsessi ishtirokchilariga bosim o'tkazish), bir qancha viloyatlar hududida (tovlamachilik, ko'chmas va ko'char mulkni egallab olish, boshqa jinoyatni sodir etish va yashirish maqsadida) va bir qancha davlatlar hududida (odam savdosi, ya'ni: boshqa shaxslar tomonidan fohishalikka majburlash va jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini qo'llash, jabrlanuvchining tana a'zolari va to'qimalaridan transplantatsiya qilishda foydalanish, o'g'irlangan bolani farzandlikka olish). Odam o'g'irlashning mintaqalararo va xalqaro miqyosdagi shakllarida esa jinoyatchilar asosan chegaradosh hududlar va chegaradan to'siqsiz o'tish imkoniyati mavjud bo'lgan mamlakatlar hududidan foydalanadilar.

Odam o'g'irlash jinoyatining aksariyat qismi Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida qayd etilgan. Bu jinoyatchilar orasida g'arazli niyatlarning ustunligini tasdiqlaydi, chunki bu hududlarda ko'rib





chiqilayotgan jinoyatlarning asosiy qurbonlari bo'lgan moliyaviy, biznes va hukumat elitasi vakillari to'plangan va 90 foiz hollarda odam o'g'irlashdan asosiy maqsad sifatida ulardan pul undirish yoki ularning mulklarini egallab olish harakatlarini keltirish mumkin.

Odam o'g'irlash jinoyati jabrlanuvchilarini yashirib qo'yishning eng ko'p uchraydigan joylari: xususiy turar-joy binolari (47,7 foiz), kvartiralar (33,7 foiz), sanoat va qurilish ob'ektlari, shu jumladan tashlandiq joylar (15,1 foiz) hisoblanadi.

So'nggi yillarda jinoyatchilar o'g'irlangan shaxsni ozod qilish uchun to'lov olish talablarini an'anaviy telefon qo'ng'iroqlari yoki SMS xabarlaridan tashqari, IP telefoniya, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan tobora kengroq foydalanishmoqda. Tovlamachilik bilan bog'liq holda odam o'g'irlanganda, ular uchun to'lov pullari va boshqa qimmatbaho narsalarni bexavotir olish uchun jinoyatchilar yashirin (xufya) joylardan, mukofot evaziga bu harakatlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning (odatda jinoiy maqsadlaridan bexabar bo'lgan) yordamidan (ko'cha bolalari, o'smirlar, doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar), shuningdek elektron to'lov tizimlaridan foydalanadilar.

Belgilangan shartlarni bajarish uchun o'ziga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkni yoki mol-mulkni egallab olish maqsadida o'g'irlangan shaxs, odatda ozod qilinadi, lekin jinoyatchilarning nazorati ostida bo'ladi. Odam o'g'irlash bilan bog'liq jinoiy faoliyatni niqoblashning asosiy shakllari xususiy qo'riqlash kompaniyalari, maklerlik agentliklari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Izlov belgilarining ikkinchi guruhiga odam o'g'irlashda ishtirok etgan uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning o'ziga xos belgilari, shuningdek, ishtirokchilarning jinoyat sodir etilgandan keyingi xatti-harakatlarini tavsiflovchi xususiyatlar, shu jumladan jinoyatni ochish va tergov qilish ishlariga faol qarshilik qilish harakatlari kiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, aksariyat hollarda (70 foiz) odam





o'g'irlash u yoki bu ko'rinishda ishtirokchilikda sodir etilgan bo'lib, ularning 13,5 foizi uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalar tomonidan sodir etilgan. Har bir uyushgan guruh o'rtacha hisobda Jinoyat kodeksining 137-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning uchta epizodini sodir etgan.

Odam o'g'irlash bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlarini o'z yo'nalishiga ko'ra ekstremistik, etnik va umumiy jinoiy guruhlariga bo'lish mumkin. Aksariyat hollarda, ular quyidagi asoslar bo'yicha: ya'ni, bir mintaqada yashaydigan, umumiy ish yoki o'qish joyi, umumiy manfaatlari, ilgarigi jinoiy aloqalari yoki birga jazo o'tashlari, oilaviy yoki etnik aloqalari mushtarakligi orqali birlashadi.

Uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalarning tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilarining asosiy qismini O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (jinoyatchi guruhlar a'zolarining 85,9 foizi), 7,4 foizini chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, 6,7 foizini esa aralash fuqarolikka ega guruhlar tashkil etgan. Ularning qariyb uchdan bir qismini muqaddam jinoyat sodir etganlar (29,5 foiz), 15 foizini esa muqaddam sudlanganlar tashkil etgan.

Odam o'g'irlash jinoyatini sodir etganlar orasida mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar (18 yoshdan 50 yoshgacha – 83 foiz), asosan erkaklar (93,3 foiz) ko'pchilikni tashkil qiladi. Ayollar tomonidan (6,7 foiz) bunday jinoyatni sodir etishdan ko'zlangan maqsad asosan yosh bolalarni farzandlikka olish yoki ularni keyinchalik sotish maqsadida o'g'irlash hisoblanadi.

Ushbu shaxslarning ijtimoiy xususiyatlarini o'rganishda ularning salmoqli qismi (67,1 foizi) doimiy daromad manbaiga ega emasligi, 16,3 foizi esa yollanma ishchilar ekanligi aniqlandi. Odam o'g'irlash bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar a'zolari o'rtasida ishsizlikning yuqori darajasi mavjudligi sababli bu kabi jinoiy faoliyat ularning asosiy, ba'zan esa yagona daromad manbai bo'lib, bu esa o'z navbatida jinoiy residivning o'ziga xos xususiyati ekanligini ko'rsatadi (11).

Bundan tashqari, noqonuniy faoliyat yurituvchi qurolli guruhlar





va tovlamachilik maqsadida odam o'g'irlash o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, ulardan olingan daromadlar terrorchilik va ekstremistik faoliyatni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Shunday qilib, odam o'g'irlash bilan shug'ullanadigan uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy uyushmalarga quyidagi sifatlar (belgilar) xosdir:

- ichki hamjihatlik, qat'iy ierarxiya, barqarorlik va jinoiy faoliyatning dadilligi, jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rish va sodir etishdagi kasbiy mahorat, yuqori darajada texnik va qurol-yarog' bilan ta'minlanganlik;
- ularning etnik, qarindoshlik va kasbiy aloqalar asosida shakllanishi;
- jinoiy tajribasiga ega bo'lgan shaxslarning, shu jumladan, ilgari sudlanganlarning yuqori ulushi;
- korrupsioner mansabdor shaxslar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan aloqalarning mavjudligi;
- noqonuniy qurolli guruhlarining sobiq a'zolari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq va amaldagi xodimlari va harbiy xizmatchilarning uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalari faoliyatida ishtirok etishi.

Bunday uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalar a'zolarining jinoyatdan keyingi xulq-atvor xususiyatlariga kelsak, shuni ta'kidlash joizki, ularning jinoiy tajribasi, ko'pincha tezkor-qidiruv faoliyatiga oid bilim va ko'nikmalariga egaligini hisobga olgan holda, huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish ishlariga faol qarshilik ko'rsatishlari bilan ajralib turishini aytish lozim.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 75 foiz hollarda odam o'g'irlash bilan shug'ullangan uyushgan jinoiy guruhlar va jinoiy uyushmalar ishtirokchilari jinoyat protsessi ishtirokchilarini ko'rsatuv berishdan bosh tortishga yoki ko'rsatuvlarini o'zgartirishga majburlash maqsadida 71 foiz, guvohlarga va 29 foiz holatlarda





jabrlanuvchilarga nisbatan tahdid qilish orqali ta'sir o'tkazishga urinishgan.

Izlov belgilarining uchinchi guruhi jinoyat qurbonining shaxsini tavsiflovchi belgilardan iborat. Jabrlanuvchilarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini tavsiflashda, ular orasida erkaklarning (93,3 foiz) va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (91,6 foiz) ulushi yuqoriligini ta'kidlash lozim.

Odam o'g'irlash qurbonlari orasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning salmog'i yuqori (92 foiz) bo'lib, ularga nisbatan jinoyat sodir etishga undaydigan omillar qatoriga ko'pincha jabrlanuvchilarning quyidagi noqonuniy xatti-harakatlarini kiritish mumkin: daromadining katta qismini soliqqa tortishdan yashirish, noqonuniy (ko'pincha jinoiy) yo'llar bilan daromad olish, shartnoma majburiyatlarini bajarishdan qochishga urinishlar. shartnoma bo'yicha tovarlarni etkazib bermaslik, kreditlar va olingan qarzlarni qaytarishdan bo'yin tovlash va hokazolar (12). Shuningdek, jinoyat protsessida faol ishtirok etishdan bosh tortish, yolg'on ko'rsatuvlar berishga, shuningdek, muayyan protsessual qarorlar qabul qilishga undash maqsadida o'g'irlab ketilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat protsessi ishtirokchilari ham odam o'g'irlash qurbonlari bo'lishi mumkin.

Odam o'g'irlash ko'pincha mansabdor shaxslarni tadbirkorlik yoki jinoiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, jinoyatchilar uchun zarur qarorlar qabul qilishga majburlash, ta'sir doiralarini taqsimlash, zarur kvotalar ajratish, raqobatchilarga bosim o'tkazish vositasi sifatida ishlatiladi.

Shunday qilib, quyidagi toifadagi shaxslarning odam o'g'irlash jinoyati qurboni bo'lish xavfi yuqori:

- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar, tijorat tuzilmalari, moliya idoralari rahbarlari va xodimlari;





- huquq-tartibot idoralari xodimlari, harbiy xizmatchilar, shu jumladan muddatli harbiy xizmat va shartnoma bo'yicha xizmat qilayotganlar;
- ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlar, faol ijtimoiy yoki siyosiy fikrga ega shaxslar;
- chet el fuqarolari, shuningdek, etnik ozchiliklar va alohida diasporalar vakillari;
- uyushgan guruhlar va jinoiy uyushmalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchilar va guvohlar;
- yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari;
- ko'chmas mulkka ega bo'lgan yolg'iz va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (pensionerlar, alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan shaxslar, etim bolalar).

Izlov belgilarining to'rtinchi guruhi jinoyatchilarning noqonuniy xatti-harakatlaridan xabardor bo'lgan, ularni ko'rsatishga qodir bo'lgan, shuningdek, ushbu jinoyatlarni ochishda nooshkora yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarni tavsiflovchi belgilardan iborat.

Jinoyatchilarning noqonuniy xatti-harakatlaridan xabardor bo'lgan va odam o'g'irlash jinoyatini ochishda yordam beradigan shaxslarga quyidagilar kiradi:

- o'g'irlangan shaxsning faoliyat turi va turmush tarzi (qarindoshlari, tanishlari va do'stlari, hamkasblari, sinfdoshlari, kursdoshlari) haqida ma'lumotga ega bo'lganlar;
- odam o'g'irlash va shu bilan bog'liq jinoyatlar uchun sudlanganlar;
- uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalari, transport korxonalari, mehmonxona komplekslari, vokzal va aeroport xizmatlari, inkassatsiya va rieltorlik agentliklari, notarial va yuridik idoralar, bozorlar va boshqa yirik savdo ob'ektlari, qurilish tashkilotlari, xususiy qo'riqlash kompaniyalari, harbiy qismlar xodimlari.

Kasbiy burchlarini bajarishi munosabati bilan huquqni muhofaza qilish





organlarini qiziqtiradigan ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan bunday shaxslar orasida odam o'g'irlash guvohlarini, shuningdek, ushbu jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda ichki ishlar organlariga nooshkora yordam ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarni qidirib topish va ular yordamidan foydalanish bu boradagi vazifalarni hal etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan odam o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatning tezkor-qidiruv tavsifi, bizningcha, undan oqilona foydalanish, tezkor izlov yo'nalishlarini to'g'ri belgilash, jinoyat sodir etgan shaxslar va jinoyat to'g'risidagi taxminlarni ilgari surish orqali, ushbu jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, fosh etish va tergov qilish samaradorligini oshiradi hamda ehtimoliy jabrlanuvchilar hamda bu kabi jinoyatlarni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan tezkor-profilaktik ishlarini tashkil etish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES: (ADABIYOTLAR)

1. Akbaraliyeva M.K. Ugolovnaya otvetstvennost za poximienie cheloveka // Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh nauk. Tom 3. № 1, 2023. – S. 205-208.

² Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. – B. 209.

3. <https://lex.uz/docs/-2640479>. 26.05.2026-yilda murojaat qilingan. Toshkent – 2026.

4. <https://lex.uz/docs/-7338189>. 26.05.2026-yilda murojaat qilingan. Toshkent – 2026.

5. <https://lex.uz/docs/-6445145>. 26.05.2026-yilda murojaat qilingan. Toshkent – 2026.

6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 345-moddasi ikkinchi qismi.





7. <https://lex.uz/docs/-111453>. 26.05.2026-yilda murojaat qilingan.
Toshkent – 2026.

8. *Borin B.V.* Sxodstvo i razlichie operativno-rozysknoy xarakteristiki prestupleniy ekonomicheskoy napravlenosti ot drugix vidov xarakteristik, ispolzuemyx v kriminalnyx naukax // Rossiyskiy sledovatel. 2014. № 6. S. 35–39.

9. *Larichev V.D.* Soderjanie operativno-rozysknoy xarakteristiki prestupleniy v sfere ekonomiki. – M.: Obshchestvo i pravo, 2013. № 2 (44). – S. 179-187.

10. *Karimov V.* Tezkor-qidiruv faoliyati: darslik. – Toshkent: Lesson press, 2021. B. 322.

11. *Gurov A.I.* Professionalnaya prestupnost: proshloe i sovremennost. M., 1990. – S. 36-55.

12. *Galaxov S.S.* Pravovye i organizatsionno-takticheskie osnovy operativno-rozysknogo obespecheniya raskrytiya poxiщeniya cheloveka: monografiya. – M.: 2005. – S. 53.

